


CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI


Asosiy tarkib




Dastlabki ma'lumotlar

Navoiy viloyati bo'yicha 2020- yilning yanvar-iyun oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **3 436,8** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **2,7 %** ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalar tovar aylanmasi **608,5** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **164,2 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **2 828,3** mlrd. so'mni (**5,0 %** ga kamaydi), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **128,3** mlrd. so'mni (**34,3 %** ga kamaydi) tashkil etdi.


Tarkibiy qism, foizda



O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



Uyushmagan savdo, mlrd. so'm






HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI, mlrd. so'm

UMUMIY MA'LUMOT

Navoiy viloyati bo'yicha 2020- yilning yanvar-iyun oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **3 436,8** mlrd. so'mni, 2019- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **102,7 %** ni tashkil etdi.



ENG YUQORI ULUSH


Navoiy viloyati bo'yicha chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Navoiy shahri **38,1 %** ulush bilan **1 309,4** mlrd. so'mni tashkil etdi.

ENG QUIYI ULUSH

Navoiy viloyati chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni Tomdi tumani **0,6 %** ulush bilan **20,1** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Navoiy viloyati chakana savdo tovar aylanmasida barcha hududlarda o'sish sur'atlari kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissi **82,3 %** va yirik korxonalar hissi **17,7 %** ga to'g'ri keldi.

YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Yirik korxonalar	Kichik biznes va xususiyy tadbirkorlik subyektlari	
		2019-yil yanvar-iyun
		2020-yil yanvar-iyun

Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes va xususiyy tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2020- yil yanvar-iyun oylari yakuniga ko'ra, **2 828,3** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **5,0** % ga kamaygan. Jami chakana savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa **82,3** % ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida tahlil qilinganda, Uchquduq (99,9 %), Navbahor (99,7 %) Tomdi (99,3 %), Nurota (99,2 %), Qiziltepa (98,8 %), Xatirchi (97,6 %) Karmana (97,0 %), tumanlarida va Zarafshon (97,6 %) shahrida yuqori bo'lgan.






**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR,
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2019- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan viloyatning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori ko'rsatkichlar Navoiy shahri (105,0 %), Karmana (102,2 %) va Xatirchi (101,9 %) tumanlarida qayd etildi.

Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari, foizda





	Jami, mlrd. so'm	2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda
Navoiy viloyati	3 436,8	102,7	608,5	164,2	2 828,3	95,0
Navoiy sh.	1 309,4	105,0	566,2	162,3	743,2	82,7
Zarafshon sh.	298,2	100,3	7,1	170,6	291,1	99,3
<i>tumanlar:</i>						
Karmana	558,5	102,2	16,9	12,3 m	541,7	99,4
Konimex	88,2	101,2	3,1	6,6 m	85,1	98,1
Qiziltepa	344,1	101,4	4,2	82,7	339,8	101,7
Navbahor	166,7	100,7	0,4	87,7	166,2	100,8
Nurota	140,2	100,6	1,1	71,1	139,1	100,9
Tomdi	20,1	100,9	0,2	100,9	19,9	100,9
Uchquduq	133,3	100,4	0,2	46,4	133,1	100,6
Xatirchi	378,1	101,9	9,1	112,3	369,1	101,6

CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Yirik korxonalar

Eng yuqori ulushga
ega hududlar, foizda





Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi, 2019- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **64,2 %** ga o'sdi va **608,5** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **17,7 %** ulushiga to'g'ri keladi.



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari


Eng yuqori ulushga
ega hududlar, foizda




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **2 828,3** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **5,0 %** ga kamaydi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **82,3 %** ni tashkil etdi.



**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK
BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING
HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI (foizda)**



Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Uchquduq (99,9 %), Navbahor (99,7), Tomdi (99,3 %), Nurota (99,2 %) va Qiziltepa (98,8 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 17,7 % ni tashkil etib, eng katta ulush Navoiy shahri (43,2 %), Konimex (3,5 %) va Karmana (3,0 %), tumanlarida kuzatildi.



NAVOIY VILOYATI BO'YICHA AHOLI JON BOSHIGA
NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR
AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

2020- yil yanvar-iyun oylari holatiga ko'ra o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **3 433,7** ming so'm (2019- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **0,9** % ga o'sdi) ni tashkil etdi. Jumladan, **Navoiy** shahrida (103,2 %) va **Xatirchi** tumanida (100,1 %) 2019- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan o'sish kuzatildi va aksincha boshqa barcha hududlarda aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2019- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan kamayish sur'atlari kuzatildi.


Ushbu ko'rsatkich hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqorisi **Navoiy shahri** (9 042,6 ming so'm) va **Karmana tumani** (4 429,4 ming so'm) hissasiga to'g'ri keladi.



	Hajm, ming so'm	2019- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, % da
Navoiy viloyati	3 433,7	100,9
Navoiy sh.	9 042,6	103,2
Zarafshon sh.	3 542,4	98,5
<i>tumanlar:</i>		
Karmana	4 429,4	99,6
Konimex	2 469,9	99,5
Qiziltepa	2 260,7	99,8
Navbahor	1 471,1	99,0
Nurota	1 508,8	98,9
Tomdi	1 357,5	98,9
Uchquduq	3 573,2	99,9
Xatirchi	1 894,4	100,1


UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Asosiy tarkib, foizda




Navoiy viloyati bo'yicha 2020- yilning yanvar-iyun oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **128,3** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **34,3** % ga kamaydi. Shu jumladan, 1- bozor va 1- bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarining sotish hajmi **84,8** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **90,8** %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **43,5** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **42,7** %) tashkil etdi.


O'zgarish sur'atlari, foizda



Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



Eng yuqori ulushga ega hududlar



**UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON* VA
CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING SAVDO
AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2020- yilning yanvar-iyun oylarida dehqon va chorva (parranda) bozorlarida, uy xo'jaligida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, parrandalar va chorva mollari savdosi bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuv, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo aylanmasi hajmi dehqon bozorlarida **84,8** mlrd. so'mni, chorva (parranda) bozorlarida **43,5** mlrd. so'mni tashkil etdi.



* Xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YTT)ni qo'shmagan holatda

* Jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, chorva (parranda) mollari

	Jami, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda	Chorva (parranda) bozorlari, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda
Navoiy viloyati	128,3	65,7	84,8	90,8	43,5	42,7
Navoiy sh.	29,7	90,9	29,7	90,9	-	-
Zarafshon sh.	6,0	81,0	6,0	81,0	-	-
<i>tumanlar:</i>						
Karmana	31,1	43,6	2,6	81,6	28,5	41,7
Konimex	4,0	60,6	2,2	96,2	1,8	41,8
Qiziltepa	13,8	68,2	9,0	93,4	4,8	45,0
Navbahor	0,9	74,7	0,9	74,7	-	-
Nurota	5,0	61,0	2,7	95,5	2,3	42,9
Tomdi	1,5	72,8	1,5	72,8	-	-
Uchquduq	2,1	76,3	2,1	76,3	-	-
Xatirchi	34,2	80,3	28,2	95,8	6,1	45,9

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: DEHQON BOZORLARI



0,9
mlrd. so'm

Tuzlamalar



45,2
mlrd. so'm

Yangi uzilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari



4,1
mlrd. so'm

Qurtilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari
(yong'oq, bodom, pista va
boshqalarni qo'shgan holda)

9,9
mlrd. so'm



Non va non
mahsulotlari



2,1
mlrd. so'm

Sut va sut
mahsulotlari

0,8
mlrd. so'm



Tuxum

8,3
mlrd. so'm



Don mahsulotlari (mosh,
loviya, no'xat, guruch va
boshqalar)

2,2
mlrd. so'm



Chorva mollari va
parrandalar uchun har xil
yem-hashaklar

2,5
mlrd. so'm



Gullar, o'simlik va nihol
ko'chatlari (manzarali va
qishloq xo'jaligi)

1,3
mlrd. so'm



Ziravorlar

7,5
mlrd. so'm



Tovuq go'shti

2020- yilning yanvar-iyun oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuv o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **84,8** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**45,2** mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

2020- yilning yanvar-iyun oylarida Navoiy viloyatining barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **43,5** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qora mollar savdosi 35,1 mlrd. so'mni, qo'y va echkilar 7,9 mlrd. so'mni, otlar 0,4 mlrd. so'mni, parrandalar 0,1 mlrd. so'mni tashkil etdi. Savdo aylanmasining to'liq tarkibi quyidagi ko'rsatkichda o'z aksini topgan:






**UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK
KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O‘SISH SUR‘ATLARI**

2020- yilning yanvar-iyun oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 1,9 % ni tashkil etib, 66,3 mlrd. so‘mga yetdi va 2019- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 25,5 % ga kamaydi. Bunda jami savdo aylanmasining 88,8 foizi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.


Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasining o‘zgarish sur‘atlari, foizda



	Jami, mlrd. so‘m	2019- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so‘m	2019- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so‘m	2019- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda
Navoiy viloyati	66,3	74,5	7,4	83,7	58,9	73,5
Navoiy sh.	22,5	67,5	5,4	61,6	17,1	69,6
Zarafshon sh.	12,3	93,3	1,9	-	10,4	79,0
<i>tumanlar:</i>						
Karmana	10,3	77,6	0,1	192,1	10,2	77,1
Konimex	1,4	69,1	-	-	1,4	69,1
Qiziltepa	6,1	73,6	-	-	6,1	73,6
Navbahor	2,4	70,9	-	-	2,4	70,9
Nurota	1,6	75,7	-	-	1,6	75,7
Tomdi	0,5	60,5	-	-	0,5	60,5
Uchquduq	2,5	73,8	-	-	2,5	73,8
Xatirchi	6,7	73,2	-	-	6,7	73,2

MULKCHILIK SHAKLI BO'YICHA UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2019- yil
yanvar-iyun



2020- yil
yanvar-iyun



Nodavlat mulk

Davlat mulki


2019- yil yanvar-iyun oylari bilan solishtirilganda davlat mulki bo'lgan umumiy ovqatlanish korxonalarining jami tovar aylanmasidagi ulushi **3,3 %** dan **7,3 %** ga ko'paygan.

Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasi **66,3** mlrd. so'm (o'zgarish sur'ati **74,5 %**) va mulkchilik shakllari bo'yicha **61,5** mlrd. so'm nodavlat mulkka (92,7 %) hamda **4,8** mlrd. so'm (7,3 %) davlat mulkiga to'g'ri keldi. Eng yuqori davlat ulushi Navoiy shahriga (21,2 %) to'g'ri keldi.

	Jami, mln. so'm	Ulushi, foizda	Nodavlat mulki, mln. so'm	Ulushi, foizda	Davlat mulki, mln. so'm	Ulushi, foizda
Navoiy viloyati	66 309,8	100,0	61 483,4	92,7	4 826,4	7,3
Navoiy sh.	22 495,6	33,9	17 719,8	78,8	4 775,8	21,2
Zarafshon sh.	12 312,4	18,6	12 312,4	100,0	-	-
<i>tumanlar:</i>						
Karmana	10 278,8	15,5	10 228,2	99,5	50,6	0,5
Konimex	1 416,2	2,1	1 416,2	100,0	-	-
Qiziltepa	6 120,2	9,2	6 120,2	100,0	-	-
Navbahor	2 373,0	3,6	2 372,0	100,0	-	-
Nurota	1 639,3	2,5	1 639,3	100,0	-	-
Tomdi	498,1	0,8	498,1	100,0	-	-
Uchquduq	2 466,1	3,7	2 466,1	100,0	-	-
Xatirchi	6 710,2	10,1	6 710,2	100,0	-	-

ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

Asosiy tarkib, foizda




Yirik korxonalar




Mikrofirma va kichik korxonalar

Navoiy viloyati bo'yicha 2020- yilning yanvar-iyun oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **753,4** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **38,7 %** ga kamaydi. Shu jumladan, yirik korxonalarining savdo tovar aylanmasi **261,1** mlrd. so'mni (**62,2 %** ga kamayish), kichik biznes subyektlarining savdo tovar aylanmasi **492,3** mlrd. so'mni (**8,6 %** ga kamayish) tashkil etdi.


O'zgarish sur'atlari, foizda



Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



Eng yuqori ulushga ega hududlar






**ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR
VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING HAJMI VA
O‘SISH SUR‘ATLARI**

Ulgurji tovar aylanmasida nisbatan yuqori o‘zgarish sur‘atlari Konimex (165,4 %), Nurota (95,7 %) Karmana (95,4 %) tumanlarida qayd etildi.


Ulgurji savdo tovar aylanmasining o‘zgarish sur‘atlari, foizda



	Jami, mlrd. so‘m	2019- yil yanvar- iyun oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so‘m	2019- yil yanvar- iyun oylariga nisbatan, foizda	Mikrofirma va kichik korxonalar, mlrd. so‘m	2019- yil yanvar- iyun oylariga nisbatan, foizda
Navoiy viloyati	753,4	61,3	261,1	37,8	492,3	91,4
Navoiy sh.	440,7	49,4	255,2	37,0	185,5	91,2
Zarafshon sh.	14,0	93,4	-	-	14,0	93,4
<i>tumanlar:</i>						
Karmana	152,5	95,4	4,7	-	147,8	92,5
Konimex	2,9	165,4	1,2	-	1,7	96,9
Qiziltepa	51,6	91,6	-	-	51,6	91,6
Navbahor	24,8	86,7	-	-	24,8	86,7
Nurota	16,1	95,7	-	-	16,1	95,7
Tomdi	1,5	90,6	-	-	1,5	90,6
Uchquduq	13,7	84,5	-	-	13,7	84,5
Xatirchi	35,6	89,4	-	-	35,6	90,7

YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda

NAVOIY VILOYATINING
ULGURJI VA CHAKANA
SAVDO TOVAR AYLANMASI
2020- yil yanvar-iyun



Yirik korxonalar	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari	
43,8	56,2	2019-yil yanvar-iyun
65,3	34,7	2020-yil yanvar-iyun



Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2020- yil yanvar-iyun oylari yakuniga ko'ra, **492,3** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **8,6** % ga kamaygan. Jami ulgurji savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa **65,3** % ni tashkil etdi.

Yuqoridagi ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, viloyatda ulgurji savdo tovar aylanmasi faqatgina Navoiy shahri va Karmana, Konimex tumanlarida yirik korxonalar tomonidan, qolgan 7 ta hududda esa asosan kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan.



Navoiy viloyatida so'nggi yillarda ulgurji savdoda davlat sektorining o'rne ko'payib bormoqda, hisobot davrida davlat sektorining jami ulgurji tovar aylanmasidagi ulushi **0,08 %** dan **0,12 %** ga ko'paygan. 2020- yilning yanvar-iyun oylari yakunlari bo'yicha ulgurji savdo aylanmasi **753,4** mlrd. so'mni tashkil etib, shu jumladan nodavlat tasarrufiga ega subyektlar tomonidan ulgurji savdo aylanmasi **752,5** mlrd. so'mni va davlat tasarrufiga ega korxonalar tomonidan **0,9** mlrd. so'mni tashkil etdi.

MULKCHILIK SHAKLI BO'YICHA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI



Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi bo'yicha mulkchilik shakllarining ulushi tahlil qilinganda, davlat mulki faqatgina Karmana (0,6 %) tumanida saqlanib qolayotganligini ko'rish mumkin. Boshqa barcha hududlarda ulgurji savdo to'liq nodavlat mulkka tegishli.